XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-19-127-7-102-K/25 Paxtachi tumani

Paxtachi tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalari, Budjet kodeksining 27 va 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining xatini inobatga olib, xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining yettinchi chaqiriq o‘n to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Paxtachi tumani budjetining 2026-yilgi daromadlari **143,0 mlrd. 53 mln. 548 ming so‘m** va xarajatlari esa **145 mlrd. 752 mln. 645,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **2 mlrd. 699 mln 97 ming so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek, Paxtachi tumani budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 mlrd. 124 mln. so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1-mlrd. 761 mln 313 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 3-ilovaga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Eshonqulov), tuman Soliq inspeksiyasi (A.G‘iyasov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishi;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Kenjayev) hamda tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot

va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **XUSHBAKOV KAYUM NORBEKOVICH**

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-127-7-102-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Paxtachi tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘m

№	Daromad turlari	Paxtachi tumani
	JAMI	**148 201 738**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1398672
2	Foyda solig‘i	2754360
3	Aylanmadan olinadigan soliq	6910000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	59972000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	328000
6	Aksiz solig‘i jami	18072000
	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0
	Pivo	0
	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	18072000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2509500
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9160000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11293000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	21738786
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	7470000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8012000
	Shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	7677000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-3070800
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	705960
15	Yig‘imlar	268500
16	Jarimalar	641760

17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	38000

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-127-7-102-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Paxtachi tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**148201738**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	43175566
	Shundan:	
	“Mening maktabim”	2904600
3	Madaniyat bo‘limi	14491911
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	5239321
5	Sport bo‘limi	8012084
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1768767
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4972536
8	Irrigatsiya bo‘limi	1882000
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2311672
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	224073
10	Hokimiyat	44261822
	Shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	26196415
	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	2029000
	Zaxira jamg‘armasi	1761313
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1151703

	Shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	106658
	Axborot-kutubxona markazlari	1045045
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	20710283

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-127-7-102-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Shamsnazar MFY	1,62	58 741 200
2	Taraqqiyot MFY	1,36	49 313 600
3	Go‘ro‘g‘li MFY	1,36	49 313 600
4	Quvondiq MFY	1,36	49 313 600
5	Burqut MFY	1,36	49 313 600
6	To‘g‘olon MFY	1,36	49 313 600
7	Qo‘shhovuz MFY	1,36	49 313 600
8	Toma MFY	1,36	49 313 600
9	Boltali MFY	1,36	49 313 600
10	Ukrash MFY	1,36	49 313 600
11	Jona MFY	1,36	49 313 600
12	Nayman MFY	1,36	49 313 600
13	Qaynarbuloq MFY	1,36	49 313 600
14	Chorgo‘sha MFY	1,36	49 313 600
15	Do‘ng MFY	1,36	49 313 600
16	Keshtali MFY	1,36	49 313 600
17	Gulobod MFY	1,62	58 741 200
18	Zarafshon MFY	1,36	49 313 600
19	Amirobod MFY	1,36	49 313 600
20	Saroy MFY	1,36	49 313 600
21	Hayit Elbegi MFY	1,36	49 313 600
22	Suluvqo‘rg‘on MFY	1,36	49 313 600
23	Mirzo Salimiy MFY	1,36	49 313 600
24	Guliston MFY	1,36	49 313 600
25	Mirkan MFY	1,36	49 313 600
26	Bo‘ston MFY	1,62	58 741 200
27	Qoratepa MFY	1,36	49 313 600
28	Tadbirkor MFY	1,36	49 313 600

29	Amir Temur MFY	1,62	58 741 200
30	Qarnabota MFY	1,09	39 523 400
31	Chashma MFY	1,09	39 523 400
32	Yangiobod MFY	1,62	58 741 200
33	Sardoba MFY	1,36	49 313 600
34	Hunarmand MFY	1,22	44 237 200
35	Urg‘uch MFY	1,62	58 741 200
36	Dabusqal’a MFY	1,36	49 313 600
37	Toshko‘prik MFY	1,62	58 741 200
38	Bog‘oloni MFY	1,36	49 313 600
39	Qirguli MFY	1,36	49 313 600
40	Fay MFY	1,22	44 237 200
41	Farovon Yo‘ldoshobod MFY	1,36	49 313 600
42	Obodon MFY	1,36	49 313 600
43	Mojor MFY	1,36	49 313 600
44	Mirzo Olim MFY	1,36	49 313 600
45	Yobu MFY	1,36	49 313 600
46	Ko‘rpa MFY	1,36	49 313 600
47	Mirzo Nodim MFY	1,36	49 313 600
48	Oqtepa MFY	1,36	49 313 600
49	Jahonobod MFY	1,62	58 741 200
50	Mirzo Ulug‘bek MFY	1,62	58 741 200
51	Istiqlol MFY	1,62	58 741 200

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-127-7-102-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Shamsnazar MFY	1,51	461,4
2	Taraqqiyot MFY	1,37	418,6
3	Go‘ro‘g‘li MFY	1,10	336,1
4	Quvondiq MFY	1,10	336,1
5	Burqut MFY	1,10	336,1
6	To‘g‘olon MFY	1,10	336,1
7	Qo‘shhovuz MFY	1,10	336,1
8	Toma MFY	1,10	336,1
9	Boltali MFY	1,24	378,9
10	Ukrash MFY	1,24	378,9
11	Jona MFY	1,24	378,9
12	Nayman MFY	1,24	378,9
13	Qaynarbuloq MFY	1,24	378,9
14	Chorgo‘sha MFY	1,24	378,9
15	Do‘ng MFY	1,24	378,9
16	Keshtali MFY	1,24	378,9
17	Gulobod MFY	1,37	418,6
18	Zarafshon MFY	1,24	378,9
19	Amirobod MFY	1,24	378,9
20	Saroy MFY	1,24	378,9
21	Hayit Elbegi MFY	1,24	378,9
22	Suluvqo‘rg‘on MFY	1,37	418,6
23	Mirzo Salimiy MFY	1,24	378,9
24	Guliston MFY	1,37	418,6
25	Mirkan MFY	1,37	418,6

26	Bo‘ston MFY	1,37	418,6
27	Qoratepa MFY	1,37	418,6
28	Tadbirkor MFY	1,37	418,6
29	Amir Temur MFY	1,51	461,4
30	Qarnabota MFY	0,96	293,4
31	Chashma MFY	0,96	293,4
32	Yangiobod MFY	1,37	418,6
33	Sardoba MFY	1,10	336,1
34	Hunarmand MFY	1,24	378,9
35	Urg‘uch MFY	1,37	418,6
36	Dabusqal’a MFY	1,24	378,9
37	Toshko‘prik MFY	1,51	461,4
38	Bog‘oloni MFY	1,37	418,6
39	Qirguli MFY	1,10	336,1
40	Fay MFY	1,10	336,1
41	Farovon Yo‘ldoshobod MFY	1,24	378,9
42	Obodon MFY	1,24	378,9
43	Mojor MFY	1,24	378,9
44	Mirzo Olim MFY	1,10	336,1
45	Yobu MFY	1,10	336,1
46	Ko‘rpa MFY	1,10	336,1
47	Mirzo Nodim MFY	1,10	336,1
48	Oqtepa MFY	1,24	378,9
49	Jahonobod MFY	1,37	418,6
50	Mirzo Ulug‘bek MFY	1,51	461,4
51	Istiqlol MFY	1,51	461,4